

>VILGELM II – Germaniya imperatori (1888–1918)

Umumiy ma'lumot

- Germaniya imperatori: 1888–1918-yillar.
- Prussiya qiroli: 1888–1918-yillar.
- Sulolasi: **gogensollernlar** (sulolaning so'nggi hukmdori).
- Vilgelm I (1871–1888)ning nevarasi.

“Yangi kurs” siyosati

Vilgelm II 1890-yilda kansler **Otto fon Bismarkni** lavozimidan chetlatdi va Germaniyaning tashqi siyosatini tubdan o'zgartirdi. U **“Yangi kurs”ni** e'lon qildi, bu quyidagi maqsadlarni ko'zladi:

- **Yevropada hukmronlikka erishish.**
- **Afrika, Osiyo va Okeaniyada mustamlakalarni qayta taqsimlash.**
- **Germaniya mustamlakalarni “adolatli” taqsimlanmagan deb hisoblardi va global ta'sir doirasini kengaytirishga intildi.**

Tashqi aloqalar va ittifoqlar

- Vilgelm II Rossiya imperatori **Nikolay II** bilan munosabatlar yomonlashdi, natijada Rossiya **1892-yilda** Fransiya bilan ittifoq tuzdi (Fransiya-Rossiya ittifoqi).
- **Usmonli sultoni Abdulhamid II** bilan yaqin munosabatlar o'rnatdi, bu Yaqin Sharqda Germaniya ta'sirini kengaytirishga yordam berdi.
- Italiya qiroli **Umberto I** va keyinchalik **Viktor Emmanuel III** bilan “Uchlar ittifoqi” doirasida aloqalar davom etgan (bu ittifoq Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiya o'rtasida 1882-yilda tuzilgan).

Imperializm va mustamlakachilik

Vilgelm II Germaniyaning global imperiyaga aylantirishga intildi. Germaniya quyidagi hududlarda mustamlakachilik siyosatini kengaytirdi:

- **Afrika:**
 - **¹Togo, ²Kamerun, ³Gvineyaning shimoliy qismi** va yondosh orollar.
 - **⁴Sharqiy Afrika** va **⁵Zanzibarni** egallandi va **“Germaniya Sharqiy Afrikasi” (hozirgi Tanzaniya)** deb ataldi.
- **Osiyo:**
 - **1897–98-yillarda** Xitoyning Shandun provinsiyasi va **Szyaochjouvan (Sindao)** bandargohi bosib olindi.
- **Tinch okeani:**
 - **1890-yillarning oxirlarida Mariana, Karolina, Samoa va Marshall** orollari Germaniya nazoratiga o'tdi.

Kil kanali

- **1890-yillarda** Shimoliy dengizni Boltiq dengizi bilan bog'lovchi **Kil kanali** qurildi.

Flot qurilishi

- Vilgelm II **“Germaniyaning kelajagi dengizda”** shiorini ilgari surdi.
- Reyxstag ulkan **harbiy flot** qurish dasturini qabul qildi.
- **1900-yillarga** kelib Germaniya dengiz qudrati bo'yicha **Buyuk Britaniyadan keyin ikkinchi** o'ringa chiqdi, bu Britaniya bilan “flot poygasi”ga sabab bo'ldi.

Bag'dod temiryo'li loyihasi

- Germaniya Yaqin Sharqda ta'sirini kengaytirish maqsadida **Bag'dod temiryo'li** loyihasini boshladi.
- Nemis bankiri **Simens** tashabbusi bilan **Bosfor, Kichik Osiyo, Suriya, Mesopotamiya va Fors** qo'ltig'iga olib boruvchi temiryo'l qurilishi rejalashtirildi.
- **1898-yilda** Vilgelm II Falastinga safar qilib, **Usmonli sultoni Abdulhamid II** bilan uchrashdi va loyihani muhokama qildi.
- Bu loyiha Buyuk Britaniya va Rossiya manfaatlariga zid edi. **Britaniya 1899-yilda Quvaytda protektorat o'rnatdi.**

“Sharqqa hujum” siyosati

- Germaniyaning **Bolqon, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqqa** faol kirib borishi “**Grang nach Osten**” (**Sharqqa hujum**) deb ataldi.
- Bu siyosat Rossiya va Britaniya bilan ziddiyatlarni kuchaytirdi.

German ittifoqi

- **1891-yilda** “**German ittifoqi**” shovinistik tashkiloti tuzildi.
- Shior: “*Qirol Prussiya ustida, Prussiya Germaniya ustida, Germaniya dunyo ustida*”.

Urushga tayyorgarlik

- Germaniya Reyxstagi qurollanish dasturlarini qabul qildi, yangi harbiy kemalar va suvosti flotlari yaratdi.
- 1905-yilda **Shliffen rejasi** ishlab chiqildi, bu ikki frontda (G'arbda Fransiya va Sharqda Rossiya bilan) urush olib borishni rejalashtirdi.

Xalqaro ziddiyatlar va Antanta

- **Marokashga da'vogarlik: Fransiya bilan** munosabatlarni yomonlashtirdi.
- **Flot poygasi: Buyuk Britaniya bilan** munosabatlarni yomonlashtirdi.
- **1907-yilda Antanta** (Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya) tuzildi, Germaniyani yakkalab qo'ydi.

Birinchi jahon urushi (1914–1918)

- **1914-yilda** Avstriya-Vengriya taxt vorisi **Frans Ferdinandning o'ldirilishi** urush uchun bahona bo'ldi.
- Germaniya Avstriya-Vengriyani qo'llab, Serbiyaga, so'ngra Belgiya va Fransiya qarshi urush boshladi.
- Urush davomida Germaniya **To'rtlar ittifoqi** (Germaniya, Avstriya-Vengriya, Usmonli imperiyasi, Bolgariya) tarkibida jang qildi.
- 1918-yilda Sharqiy frontda Rossiya bilan **Brest shartnomasi** imzolandi, bu Rossiyaning urushdan chiqishiga olib keldi. Shartnoma Germaniyaga Ukraina, Belorussiya va Boltiqbo'yi hududlarini vaqtincha nazorat qilish imkonini berdi, ammo bu g'alaba uzoq davom etmadi.

Noyabr inqilobi va taxtdan voz kechish

- 1918-yil 9-noyabrda Germaniyada **Noyabr inqilobi** yuz berdi.
- Vilgelm II taxtdan **voz kechdi va mamlakatdan qochib ketdi.**
- Germaniyada **monarxiya tugatildi.**
- Sotsial-demokrat **Fridrix Ebert** boshchiligida **Veymar Respublikasi** e'lon qilindi.
- 11-noyabrda **Kompenda** Germaniyaning taslim bo'lganligi to'g'risida sulh shartnomasi imzolandi (Kompen sulhidan so'ng Lenin Brest shartnomasini bekor qilgan).

>TEODOR RUZVELT – AQSH prezidenti (1901–1909)

Umumiy ma'lumot

- AQSH prezidenti: **1901–1909-yillar**.
- Partiyasi: **respublikachi**.
- **Amerika-Ispaniya urushida (1898)** shaxsan qatnashib, shuhrat qozongan edi.
- AQSH tarixidagi **“taraqqiyparvar davr” (1900–1914)** da mamlakatni boshqargan prezidentlardan biri.
- Nobel tinchlik mukofotini olgan (**rus-yapon urushidagi vositachiligi uchun**).

Ichki siyosat

- **Monopoliyalarga qarshi kurash:**
 - Uning dasturi **“Adolatli yo'l”** deb nom olgan.
 - hukumat ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi mojarolarda **hakamlik** vazifasini bajara boshlagan.
 - **trestlarga qarshi ko'plab sud jarayonlari** tashkil etilgan.
 - **Morgan** nazorat qiladigan temiryo'l kompaniyasi ikkiga bo'lingan.
 - **temiryo'llar faoliyatini** tartibga soluvchi qonun qabul qilingan.

Tashqi siyosat

- **Panama kanali (1903–1914):**
 - **Fransiyadan** Panama kanalini qurayotgan va kasodga uchragan aksiyadorlik jamiyatining hamma aksiyalarini **arzon-garovga sotib oldi**.
 - **Kanal Kolumbiya hududida edi**. Kanal qurish va undan foydalanish huquqiga Amerikaning to'la ega bo'lishiga **Kolumbiya Senati qarshilik qildi**.
 - **1903-yil** AQSH Panamada **Kolumbiyaga qarshi isyon** tashkil etdi va u yerda “qo'g'irchoq” hukumat tuzdi.
 - Panama mustaqil respublika deb e'lon qilindi. AQSH Panama Respublikasining mustaqilligini tan oldi.
 - Panama hukumati AQSH bilan kanal qazish, temiryo'llar va Panama kanali bo'yida istehkomlar qurish uchun Amerikaga juda keng huquqlar bergan shartnomani imzoladi.
 - Buning evaziga Panama **10 mln dollar** oldi va **har yili renta** olib turadigan bo'ldi.
 - Kanal qurilishi **1914-yilda** tugallandi (Vilson davrida).
- **Rossiya-Yaponiya urushi va Portsmut shartnomasi (1905):**
 - **1904–1905-yillardagi Rossiya-Yaponiya urushi** Uzoq Sharqdagi raqobatni keskinlashtirdi.
 - Ruzvelt muzokarachilik olib bordi va **1905-yilda Portsmut shartnomasini** imzolashga yordam berdi.
 - Shartnoma **Yaponiyaga Janubiy Saxalin va Port-Artur** ustidan nazoratni berdi.
 - **Ruzvelt Nobel tinchlik mukofotini oldi**.
- **“Monro doktrinasini”ning Ruzvelt versiyasi va Yog'on kaltak siyosati:**
 - T. Ruzvelt “Monro doktrinasini”ni (1823-yilda qabul qilingan) **AQSH moslab talqin etdi**.
 - **Unga ko'ra, Amerika mamlakatlarining birontasida tartibsizliklar doimiy tus olgan taqdirda xalqaro politsiya rolini bajarish AQSHning burchi bo'lishi kerak edi**.
 - Shu tariqa **“yo'g'on kaltak” atamasi** vujudga keldi.
 - **“Yo'g'on kaltak” siyosati AQSHni “G'arbiy yarimsharning politsiyasiga aylantirdi”**.

Muallifdan

“HISTOMAP” qo‘llanmalar turkumi – testga tayyorlanish uchun eng yaxshi vositalardan biridir. Bilamizki, bugungi kunda “Milliy sertifikat”, “Attestatsiya”, umuman, tarix faniga oid har qanday imtihonlarda savollarning katta qismi **tarixiy shaxslar bilan bog‘liq**. Testlarda o‘quvchilarim yaxshi natija ko‘rsatishi uchun **2017-yildan beri har bir darslik bo‘yicha “Histomap” qo‘llanmasini tuzib kelaman**. Ushbu faylda esa 10-sinf “Jahon tarixi” (2022) darsligi bo‘yicha tuzgan “Histomap”mdan sizga namuna keltirdim.

Bunday qo‘llanmani yaratish mendan har bitta shaxsga doir ma‘lumotlarni barcha darslikdan sinchkovlik bilan tahlil qilishni, xulosalarim to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini bilishim uchun qo‘shimcha manbalarni ham o‘rganishni talab etadi.

Masalan, bir necha yil oldin Vilgelm II ning qaysi suloladanligini bilishni talab etadigan savol ochiq test topshirig‘i bo‘lib tushgan. To‘g‘ri, bugun buni ko‘pchilik biladi. Lekin o‘sha payti aksariyat gabsburglar deb yozib chiqqan.

“Histomap” qo‘llanmasi “Milliy sertifikat”dagi “kutilmagan” savollarga tayyorlanishda ham juda yaxshi vosita bo‘la oladi. Va bu borada o‘zini isbotlagan. Isbotni quyida taqdim etaman (bu bittasi, xolos):

TARIX fanidan «MILLIY SERTIFIKAT» imtihonida

Xorazmlik 10-sinf
o‘quvchisidan
REKORD NATIJA!

**87,22 ball bilan
A+ sertifikati**

BIRINCHI URINISHDA!

Repetitor: Jalol BOLTAYEV
Telegram: @jalolboltayev
Telefon: 97-299-00-66



Agar siz ham shunday haqiqatan sifatli qo‘llanma va testlar bilan shunday yuqori natijalarga erishishni istasangiz, **ONLAYN** yoki **OFLAYN** kurslarimga yoziling!

Telegram: [@JalolBOLTAYEV](https://t.me/jalolboltayev) | Telefon: 97-299-00-66